

BUXORO XONLIGIDA DINIY ULAMOLARNING DAVLAT BOSHQARUVIDA TUTGAN O'RNI

Abdullayeva Munajat Erkinboyevna

UrDU tarix fakulteti magistranti

Karimova Durdona

Urganch ixtisoslashtirilgan

san'at maktabi o'qituvchisi.

Matkarimova Sharofat

Urganch ixtisoslashtirilgan

san'at maktabi o'qituvchisi.

O'zbek davlatchiligining tarixiy taraqqiyoti davomida siyosiy, iqtisodiy va madaniy mavqeiga ega bo'lgan bir qancha markazlashgan davlatga asos solingan. Bu davlatlar nufuzi bilan bir birisi bilan tebglasha olmasada, xar birining o'ziga xos o'zni bor edi. Movaraunnahr shayboniyalar qo'liga o'tgandan so'ng , Ubaydullaxon(1533-1539) davrida poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirilgan va Muhammad Shayboniyxon asos solgan bu davlat Boxoro xonligi nomini olgan. Ubaydullaxon vafotidan so'ng xonlik mayda qismlarga bo'linib ketdi va natijada shayboniy sultonlar va maxalliy xokimlarning xokimiyat uchun kurashi kuchaydi. Bu kurashlar 1551-1556 yillarni o'z ichiga olib, unda Iskandar sultonning o'g'li Abdullaxon II g'olib chiqib, Buxoro xonligida o'z xokimiyatini o'rnatdi. Aynan shu davrdan boshlab diniy ulamolarning mamlakat siyosiy, ijtimoiy va davlat boshqaruviga aralashuvi yanada kuchaydi. Aslida diniy ulamo va shayxlarning siyosiy jarayonlarga aralashuvi o'rta asrlarda sharq va g'arb davlatlari uchun odatiy xodisa bo'lib, bu nemis olimi Florian Shvars tomonidan aytilgan "Shayxsiz imperiya yo'q" iborasi bilan ifoda etiladi.

XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro xonligida diniy arboblarning mavqei nihoyatda kuchli bo'lgan. Davlat boshlig'ining hokimiyati ilohiy qudratga ega bo'lganligi Qur'oni Karimning qator sura va oyatlarida xuddi shu narsa belgilab qo'yilgan: "U sizlarni yer yuzida xalifa qilib qo'ygan " yoki "Va biz uni yuksak martabaga ko'tardik" kabi qoidalar ko'rsatib o'tilgan. Ammo xon xokimiyati zaiflashganda tasavvuf shayxlarining siyosiy ishlarga faol aralashganlik holatini xam ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda Movaraunnahr hukmdorlari diniy ulamolarni yaxshi iltifotlar ko'rsatib katta davlat lavozimlariga tayinlaganlar. Shayxulislom, rais, sadr, naqib, qozi kalon mansablari merosiy nasldan naslga o'tib kelgan.



Shu davr manbalaridan bo'lgan "Tuhfatul-xoniy" asarida ushbu xolat aniq tasvirlanib, Buxoro xonligida oily diniy lavozimlar quyidagicha taqsimlangan: 1) "o'rini shoh nishin" eng oliy diniy lavozim bo'lib, bu o'ringa Maxdumi A'zam avlodidan bo'lgan Islomxo'ja tayinlangan; 2) Buxoro davlati shayxulislomi lavozimiga Xoja Islom Jo'yboriyning avlodidan bo'lgan Nasrulloxoja bo'lgan; 3) Naqiblikka Sa'id Ota avlodidan Muhammadxoja; 4) Qozikalonlik lavozimiga esa Mirakon urug'idan Nizomaddinxoja; 5) Samarqand shahri va viloyatining shayxulislomlik lavozimiga esa Xoja Ahror avlodidan bo'lgan Shahobiddinxoja tayinlangan, ya'ni hukmdorlar sulolasi qancha o'zgarmasin, diniy huquqiy lavozimlarning bu tarzda tuzilishi asrdan asrga o'zgarmay kelavergan.


XVI-XVII asrlar ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy xayotini Jo'ybor xojalarisiz tasavvur qilish qiyin. Movaraunnahrda hukmronlik qilgan ikki sulola, Shayboniylar va Ashtarxoniy davrida bu xonadon vakillari mamlakat ijtimoiy, siyosiy xayotiga katta ta'sir ko'rsatdilar. Ular Naqshbandiya tariqatining vakillari bo'lib, bu nom Xoja Muhammad Islomning bobosi Xoja Muhammad Yahyo Buxorodagi Jo'ybor degan yerga ko'chib kelishi bilan bog'liqdir. Jo'ybor Xojalari o'zlarini islom dinini targ'ib qilish uchun Makkadan Nishopurga, undan Buxoroga kelgan Imom Ali Murtazo avlodlari deb hisoblaganlar. Jo'ybor Xojalaridan Abu Bakr Sa'd va uning avlodlariga Somoniylar davrida Buxoroning "shayx ul-islomi" degan mansab beriladi. Abu Bakr Sa'dning nevarasi Muhammad Islom jo'ybor xojalarining iqtisodiy va siyosiy jihatdan katta nufuzga ega bo'lishida asosiy ro'l o'ynaydi. U XVI asrning 50-yillarida Shayboniylar davlatidagi toju-taxt uchun bo'lgan kurashlarga aralashib, o'z muridi Abdullaxon II ning taxtga chiqishiga yordam beradi.

Albatta Abdullaxon II o'z faoliyati davomida diniy ulamolarning faoliyatiga tayangan. (ayrim ilmiy adabiyotlarda ularga "tojsiz hukmdorlar" deya ta'rif berilgan). Shuningdek Abdullaxon II va undan keyingi mamlakatni boshqargan ashtarxoniy hukmdorlar davrida yuksak mavqega ega bo'lgan boshqa diniy ulamolar, masalan Qosim shayx, Xoja, Xoja Muhammad Tohir, Xoja Hoshim, Xoja Abdurasul kabi ko'plab boshqa diniy ulamolar ham faoliyat yuritgan.

Ma'lumki Abdullaxon II vafotidan so'ng, Buxoro taxtini egallagan Abdulmo'min 1598 yilda, jo'ybor shayxlaridan xomiylik qidirdi, olti oygina hukmronlik qilganiga qaramasdan, shu qisqa davr ichida 5-6 marta Sumitanga tashrif buyurdi va xojalarga katta hayr ehsonlar qilgan.

Ashtarxoniy hukmdorlarning dastlabki davrlarida Jo'yboriy shayxlarning mavqei yaxshi bo'lgan bo'lsa, so'ngi hukmdorlar davrida esa ular ning ro'li biroz cheklab qo'yildi. Shunday bo'lsada jo'ybor xojalar mavqeining iqtisodiy asoslariga





alohida e'tibor bersak, manbalarda oilaviy me'morchilik majmualari va vaqf mulklarini boshqaruvchi avlodlar uchun boylik orttirish vositasi bo'lganligi ta'kidlangan. Shu bilan birga Jo'ybor xojalari daromadining katta qismi dehqonchilik, chorvachilik va svdo sotiqdan kelgan. Xojalar mulkining boshqa bir qismini turli shaxslardan arzon bahoda harid qilishgan yer-suv va hunarmandchilik do'konlari va boshqalar tashkil qilgan. Jo'yboriylarning ijtimoiy va siyosiy himoyagasiga o'tishni istagan dehqonlar, hunarmandlar va boshqa toifa shaxslar ularga o'z mulklarini arzon narxda sotishgan va hatto bu ishni savob deb bilishgan. Bundan cho'chigan Ashtarxoniylar xojazodalarning bu mulklarini qonuniy yo'l bilan orttirilganiga shubxa qilib ularga daxl qila boshlaganlar.

Diniy ulamolar, jumladan Jo'ybor xojalarining ichki va tashqi siyosiy va iqtisodiy hayotga ta'siri Ashtarxoniy Ubaydullaxon (1702-1711) davriga kelib butunlay cheklangan. Ubaydullaxon ushbu xodadon vakillarining imtiyozlarini bekor qilgan, ularga tegishli bo'lgan yer va ko'chmas mulklarini qonuniyligini qayta tekshirib chiqishga buyruq bergan. Bu jarayon esa mamlakatda ichki nizolarni avj olishiga, markaziy hukumatga qarshi kuchlarning ko'payishiga sabab bo'lgan. Bu esa Buxoro xonligining zaiflashuviga olib kelgan.

XVI-XVIII asrlar Buxoro xonligi tashqi aloqalar tizimida o'ziga xos davr bo'lib, bu xonlik tashqi aloqalarining shakllanishi va o'ziga xos tarzda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Buxoroning qo'shni va chet el davlatlari bilan diplomatik, savdo va iqtisodiy aloqalarida, xonlikning keyingi taraqqiyotidashu yerda yashagan turli ijtimoiy tabaqa vakillari katta ro'l o'ynagan. Xususan, savdogarlar, diniy ulamolar va ma'muriy boshqaruv tizimining ayrim vakillarini sanab o'tishimiz o'rinli. Ma'lumki, avvalgi davrlardagi kabi Shayboniylar va Ashtarxoniylar xukmronligi davrlarida xam tashqi siyosiy faoliyatiga, ayniqsa Naqshbandiya so'fiylik tariqati vakillari faol ishtirok etgan.

Diniy ulamolarning Buxoro xonligi tashqi aloqalarida ayniqsa Jo'ybor xojalaridan Xoja Islom, Xoja Sa'd, Xoja Tojiddin va boshqalar nomiga turli davlatlar, jumladan Xindiston, Xuroson, Eron, Turkiya, Yorkend, Qoshg'ar va Qozoq xonliklaridan juda ko'plab xatlar kelgan. Bundan diniy ulamolarning bu vakillari xonlikda xatlar orqali olib borilgan tashqi siyosiy aloqalarida faol ishtirok etganligidan dalolat beradi. Shuningdek xolikda jo'ybor xojalari nomiga boshqa viloyat xokimlari, chet davlat hukmdorlaridan ham Buxoro bilan aloqalarni mustaxkamlash uchun ko'mak so'rab yozilgan xatlar ham kelgan. Bu ma'lumotlar orqali diniy ulamolarning davlatlar o'rtasidagi aloqalarda ham elchilik qilganligini ko'rishimiz mumkin.



XVI asr ikkinchi yarmida Buxoro va Yorkend davlatlari o'rtasidagi diplomatik aloqalarni o'rganishda, o'zaro elchilar almashinuvidan tashqari xatlar ham alohida o'rin tutadi. Xatlarning aksariyatigarchi jo'ybor xojalari Xoja Islom va Xoja Sa'dlar nomiga kelgan bo'lsada, ikki davlat o'rtasidagi aloqalarga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Yorkend xoni Abdulkarimxon o'zini Xoja Sa'dning muridi xisoblagan va ularni doimo duo qilib turishlarini, ular bilan aloqasini uzmasligini so'ragan. Yorkend xonining e'tirof etishicha, bu ikki davlat o'rtasidagi boshqa aloqalarni ham rivojlanishiga yo'l ochgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orqali diniy ulamolarning Buxoro xonligining tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarida ko'p hollarda muhim ro'l o'ynagan deb xulosa chiqarish imkonini beradi. Ayniqsa tashqi siyosiy aloqalarda Naqshbandiya tariqatining jo'ybor xojalari xonadoni XVI-XVII asrlarda alohida nufuzga ega bo'lishgan. Tashqi elchilik va xatlararo aloqalarning muhim qatnashchilari bo'lgan diniy ulamolar o'z navbatida xonlikning tashqi iqtisodiy aloqalariga ham ta'sir o'tkazganlar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, diniy ulamolar Buxoro xonligi tashkil topgan paytdan boshlab XIX asr o'rtalariga qadar xonlik ijtimoiy tabaqalari orasida o'zining mustahkam o'rnini saqlab keldi. Shayboniylar davrida ular yuksak o'bro' va mavqe egalari sifatida xukmron tabaqalar qatorida turgan bo'lsalar, Ashtarxoniylar davriga kelib ularning imtiyozlari ancha cheklab qo'yildi, Mang'itlar davrida esa ular faqat ma'naviy, ma'rifiy va iqtisodiy hayotga ta'sir o'tkazishgagina qodir edilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. // Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.- Toshkent: O'zbekiston, 1999. T.7.
2. Muhammad Haydar mirzo "Tarixi Rashidiy" / Kirish, so'z boshi va izohlar mualliflari, tarjimonlar: Vahob Rahmonov, Yanglish Egamova-Toshkent, SHARQ. 2010.
3. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma / Ikkinchi nashr, tayyorlovchi akademik B.Axmedov. – Toshkent: Sharq, 1999, 1-kitob
4. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 2-kitob. – Toshkent: Sharq, 2000.
5. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
6. To'rayev H. Buxoro xonligining XVI – XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotida Jo'ybor xojalarining tutgan o'rne. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertatsiyasi. – Toshkent, 2007

